

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES



huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2024-yil 1-son

VOLUME 8 / ISSUE 1 / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.1.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref

Content  
Registration

# MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ  
NAZARIYASI VA TARIXI.  
HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

5 **ISMAILOV BEKJON SALIXOVICH**  
O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslar  
huquqlari va imtiyozlarining funksional  
imkoniyatlari hamda ularning yuridik tahlili

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY  
HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ.  
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

17 **HOSHIMXONOV AHRORXON  
MUMINOVICH**  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va  
Vazirlar Mahkamasi: o'zaro munosabatlarning  
yangicha tartibi

25 **ERGASHEV IKROM ABDURASULOVICH**  
Soliq intizomini ta'minlashda davlat soliq  
xizmati organlari ishtirokinging huquqiy  
asoslarini takomillashtirish

36 **MAXMUDOV FIRUZ BAXTIYOR O'G'LI**  
Zamonaviy davlat boshqaruvi va davlat  
fuqarolik xizmatining nazariy-huquqiy jihatlari

12.00.06 – TABIIY RESURLAR  
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.  
EKOLOGIK HUQUQ

48 **NURULLAYEV SHOXRUX  
SHUXRATILLAYEVICH**  
Qurilish sohasida ekologik yuridik javobgarlik

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.  
HUQUQBUZARLIKLARNING  
OLDINI OLIH.  
KRIMINOLOGIYA.  
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

57 **KAMALOVA DILDORA GAYRATOVNA**  
Jinoyatga suiqasd qilishdan ixtiyoriy qaytishga  
oid konseptual qarashlar

67 **MIRZARAIMOV SARDOR TAXIROVICH**  
Bezorilik huquqini qo'llash muammolari

12.00.09 – JINOYAT  
PROTSESSI. KRIMINALISTIKA,  
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA  
SUD EKSPERTIZASI

84 **САБЫРБАЕВА АЙНУРА БАХЫТ КЫЗЫ**  
Новые способы отмывания денежных средств  
при совершении киберпреступлений

96 **MAXMUDOV SUNNAT AZIM O'G'LI**  
Reabilitatsiya asoslariga ko'ra jinoyat ishini  
tugatishning ayrim jihatlari

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2024.8.1./LGCD2531>  
UDC: 342.9:336.221(045)(575.1)

## SOLIQ INTIZOMINI TA'MINLASHDA DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANLARI ISHTIROKINING HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Ergashev Ikrom Abdurasulovich,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Ma'muriy va moliya huquqi  
kafedrası professori v.b.,  
yuridik fanlar doktori  
ORCID: 0000-0002-3924-5182  
e-mail: ikromabdurasulovich@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada soliq intizomini ta'minlashda davlat soliq xizmati organlari ishtirokining ilmiy va konseptual asoslari tizimli tahlil qilingan. Hozirga qadar bu savollar yuridik jihatdan chuqur tadqiq qilinmagan. Unda soliq intizomini ta'minlashda davlat soliq xizmati organlari ishtirokining samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'nalishi va yangi g'oyasi taklif etilgan. Soliq intizomini ta'minlashda davlat soliq xizmati organlari ishtiroki masalalari yuzasidan milliy soliq huquqi doirasida chuqur ilmiy izlanishlar bugungi kunda mavjud bo'lmagani hamda ushbu ilmiy maqolada aks ettirilgan fikrlar ilmiy qarashlar sifatida o'rin olganini hisobga olib, ushbu tadqiqot ishida asosan qiyosiy-huquqiy tahlil metodidan foydalanildi. Shu bilan birga, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llandi. Soliq intizomini ta'minlashda davlat soliq xizmati organlari ishtiroki bo'yicha turli xorijiy va mahalliy iqtisodchilar, huquqshunos olimlarning fikrlari asosida muallifning tahliliy mulohazalari asosida o'rganilgan hamda xorijiy davlatlar tajribasi misolida tahlil qilingan. Natijada soliq intizomini ta'minlashda davlat soliq xizmati organlari ishtiroki borasidagi ayrim muammolar, xususan, mavjud normalarning ishlamasligi va uning sabablari aniqlandi. Muallif tomonidan davlat soliq siyosatini amalga oshirish hamda soliq to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi, soliqlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishiga oid qonunchilik normalaridagi bo'shliqlar va qonunosti hujjatlarining tez o'zgaruvchanlik sabablari, ularning soliq to'lovchilar uchun ta'siri tahlil qilindi. Shu bilan birga, soliq nazoratiga oid qonunchilikni qo'llashda kamchiliklar borligi, ularni tuzatish uchun ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish lozimligi aniqlandi. Maqolada ushbu sohadagi mavjud muammolar tahlilidan kelib chiqib taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** davlat soliq xizmati organlari, davlat soliq inspeksiyalari, soliq nazorati, soliq tekshiruvlari, soliq intizomi, soliq ma'muriyatchiligi, soliq tizimi, soliq to'lovchi.

### СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАВОВОЙ ОСНОВЫ УЧАСТИЯ ОРГАНОВ ГОСУДАРСТВЕННОЙ НАЛОГОВОЙ СЛУЖБЫ В ОБЕСПЕЧЕНИИ НАЛОГОВОЙ ДИСЦИПЛИНЫ

**Эргашев Икром Абдурасулович,**  
доктор юридических наук, и. о. профессора кафедры  
«Административное и финансовое право»  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В настоящей статье анализируются научные и концептуальные основы участия органов государственной налоговой службы в обеспечении налоговой дисциплины.

Сегодня эти вопросы с правовой точки зрения глубоко не изучены. Предлагаются современные направления и новый взгляд на повышение эффективности участия органов государственной налоговой службы в обеспечении налоговой дисциплины. Принимая во внимание тот факт, что в рамках национального налогового законодательства отсутствуют глубокие научные исследования относительно участия органов государственной налоговой службы в обеспечении налоговой дисциплины, а мнения, изложенные в настоящей статье, рассматриваются как научный взгляд, в исследовательской работе преимущественно использовался сравнительно-правовой метод анализа. Вместе с тем были использованы методы наблюдения, обобщения, индукции и дедукции. Участие органов государственной налоговой службы в обеспечении налоговой дисциплины исследовано на примере опыта зарубежных стран, мнений различных зарубежных, отечественных экономистов и учёных-правоведов, а также собственных аналитических соображений автора. В результате проведённого исследования обнаружены некоторые проблемы участия органов государственной налоговой службы в обеспечении налоговой дисциплины, в частности неисполнение существующих норм, выявлены причины их неисполнения. Автор проанализировал пробелы в законодательных нормах, связанные с реализацией государственной налоговой политики, соблюдением налогового законодательства, правильным исчислением налогов, их полной и своевременной уплатой, а также причины быстрых изменений подзаконных актов и их влияние на налогоплательщиков. Кроме того, установлено, что имеются недостатки в применении законодательства о налоговом контроле, для устранения которых необходимо внести некоторые изменения в нормативно-правовые акты. В статье представлены предложения и рекомендации, основанные на анализе существующих проблем в данной сфере.

**Ключевые слова:** органы государственной налоговой службы, государственная налоговая инспекция, налоговый контроль, налоговые проверки, налоговая дисциплина, налоговое администрирование, налоговая система, налогоплательщик.

## IMPROVING THE LEGAL BASIS OF THE PARTICIPATION OF STATE TAX SERVICE BODIES IN ENSURING TAX DISCIPLINE

**Ergashev Ikrom Abdurasulovich,**  
Tashkent State University of Law,  
Acting professor of the department of  
Administrative and Financial law,  
Doctor of Law (DSc)

**Abstract.** This article analyzes the scientific and conceptual basis of the participation of state tax bodies in ensuring tax discipline. Today, these questions have not been deeply studied from a legal point of view. Modern directions and a new vision to increase the efficiency of the participation of state tax bodies in ensuring tax discipline are proposed. Taking into account the fact that within the base of national tax legislation there are no in-depth scientific studies regarding the participation of state tax bodies in ensuring tax discipline, and also the opinions expressed in this scientific article are considered as scientific views, the research work mainly applied the comparative legal method of analysis. Meanwhile, methods of observation, generalization, induction, and deduction were also applied. The participation of state tax authorities in ensuring tax discipline is studied using the experience of foreign countries, the opinions of various foreign and national economists and law scholars, as well as the author's own analytical considerations. As a result of the study, some problems were discovered with the participation of state tax authorities in ensuring tax discipline, in particular non-compliance with existing rules, and the reasons for their non-compliance were identified. The author analyzes the gaps in legislative rules related to the application of state tax policy and compliance with tax legislation, the correct calculation of taxes, their full and timely payment, as well as the reasons for rapid amendments

*in by-laws and their impact on taxpayers. In the meantime, it has been established that there are shortcomings in the application of legislation on tax control, and to eliminate them, it is necessary to make some amendments in the regulations. The article presents proposals and recommendations based on an analysis of existing problems in this sphere.*

**Keywords:** *state tax service bodies, state tax inspection, tax control, tax audits, tax discipline, tax administration, tax system, taxpayer.*

## **Kirish**

Davlat soliq xizmati organlarini soliq to'lovchilarning biznes-hamkori va maslahatchisi sifatidagi yangi imijini yaratish orqali xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan idoraga aylantirish, har bir xodim tomonidan "Soliq xizmati – insofli soliq to'lovchilarning ishonchli hamkori" degan maqsadli vazifani so'zsiz bajarish O'zbekiston Respublikasi soliq ma'muriyatchiligi tizimini takomillashtirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'lon qilingan.

O'zbekistonning global integratsiyalashgan iqtisodiyotga kirishi davlatning ijtimoiy funksiyasi ahamiyatini oshirib, inson qadri ulug' degan tamoyilni esa barcha sohalarida ustuvor etib belgiladi. Soliqlar ijtimoiy hodisa, barqaror rivojlanish moliyaviy mexanizmining asosi va ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim ta'minotchisi hisoblanadi.

Bizga ma'lumki, soliqlar orqali davlat, jamoa va shaxsiy iqtisodiy manfaatlar o'rtasida ijtimoiy muvozanatga erishiladi. Ushbu jarayonlarda soliq munosabatlari mavjud modellarini (davlat va soliq to'lovchilarning o'zaro munosabatlari tenglik, qonun va sheriklik tamoyillari nuqtayi nazaridan tavsiflovchi) hamda ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish va takomillashtirish imkoniyatlarini ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'z navbatida, soliq munosabatlarining amaldagi milliy modeli soliq to'lovchilar va davlat soliq organlarining tegishli soliqqa oid xatti-harakatlarini belgilash, tartibga solishni talab qiladi. I. Korostelkina to'g'ri qayd etganidek, "Soliq madaniyati, soliq xulq-atvori va intizomi davlat organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayoni

hamda milliy manfaatlarni himoya qilish, barqaror rivojlanish darajasini belgilaydi" [1].

Soliq munosabatlari amaliyoti shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda soliq agentlari xulq-atvorining o'ziga xos stereotipi mavjud [2] va soliq madaniyatining modeli shakllandi, bu bir tomondan, soliq to'lashdan qochish istagida namoyon bo'lsa, boshqa tomondan rasmiy majburiyatlarni bajarish uchun motivatsiya yetishmasligida namoyon bo'ladi.

Shu munosabat bilan biz nafaqat soliq to'lovchilarning xatti-harakatlari va shunga asoslangan bir tomonlama soliq munosabatlari tartibga solish modellarini, balki jamiyatda barqaror rivojlanish manfaatlari yo'lida soliq sohasidagi munosabatlarda davlat soliq organi va soliq to'lovchilar o'rtasidagi sherik modelidan samarali foydalanish mexanizmlarini ochib berish, zarur deb hisoblaymiz.

Shu nuqtayi nazardan, *soliq tizimining sheriklik tamoyiliga asoslangan rivojlanish konsepsiyasi* davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish darajasini tavsiflovchi ustqurma sifatida ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq.

Soliq to'lovchilar va davlat soliq organlarining soliq madaniyati, intizomi va xulq-atvori, soliq elementlarining (soliq tizimi, soliq munosabatlari subyektlari va soliq qonunchiligi) funksiyalari va o'zaro ta'sirining samaradorligi ushbu modelning samarali ishlashiga bevosita ta'sir qilishini unutmaslik zarur.

Mamlakatimizda davlat soliq organlari, umuman soliq intizomiga aloqador davlat organlari faoliyatining bugungi holatini mustaqillik yillarida tanlangan soliq intizomini



ta'minlash modeli tahlilidan boshlash maqsadga muvofiq sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 18-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Davlat soliq bosh boshqarmasini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga aylantirish to'g'risida"gi PF-744-son Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat soliq bosh boshqarmasi negizida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tashkil etilgan.

Davlat soliq xizmati organlari faoliyatining huquqiy asoslarini belgilash maqsadida 1997-yilning 29-avgustida "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan ularga yuklangan vazifalarning samarali bajarilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 12-yanvarda "O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi 14-son qarori qabul qilindi.

Mazkur hujjatlarning mazmuniga e'tibor qaratsak, ularda asosiy e'tibor ma'muriy boshqaruv va hokimiyat kuchini ko'rsatishga qaratilganini ko'rish mumkin.

Shu maqsadda soliq intizomini mustahkamlash, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari qat'iy amal qilish, soliq to'lovlari budjetga to'liq va o'z vaqtida tushishini ta'minlash, soliq to'g'risidagi qonun buzilishlarining aniqlanishi, ularning oldini olish va ularni bartaraf etish ustidan davlat nazoratini kuchaytirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 13-martda soliq organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida"gi 87-son qarori ham qabul qilingan.

Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari dasturi ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda "Yangi O'zbekis-

ton ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-son Farmoniga muvofiq 2023-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi Soliq qo'mitasi shaklida qayta tashkil etilib, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuriga o'tkazildi.

Davlat soliq organlari faoliyatining yangi bosqichi va "Soliq xizmati – insofli soliq to'lovchilarning ishonchli hamkori" degan tamoyilni hayotga joriy qilish 2016-yildan keyingi davrga to'g'ri keladi. Aynan shu davrdan boshlab, davlat soliq xizmati organlari faoliyatida *sheriklik tamoyiliga asoslangan rivojlanish konsepsiyasini joriy qilishga qaratilgan ilk qadamlar tashlangan.*

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risi"dagi PF-4947-son Farmoni bilan belgilab berilgan vazifalarni bajarish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-iyundagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3802-son qarori va uni bajarish yuzasidan, shuningdek, davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-apreldagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 320-son qarori va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

So'nggi besh yil mobaynida davlat soliq organlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan yirik normativ massiv yaratilganini alohida ko'rsatib o'tish zarur. Jumladan, so'nggi to'rt yilda soliq sohasining tashkiliy-huquqiy asoslarini

takomillashtirishga qaratilgan 15 ta qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26 ta farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 52 ta qarori qabul qilingan.

Mazkur hujjatlar asosida zamonaviy soliq intizomini ta'minlashga qaratilgan bir qator ustuvor vazifalar belgilab olindi. Jumladan:

“Soliq ma'muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish, soliq to'lovchilarga, eng avvalo, tadbirkorlik subyektlariga to'g'ridan to'g'ri muloqotsiz elektron xizmat ko'rsatishga to'liq o'tish;

soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to'lovchilarga har tomonlama ko'maklashish, soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasining ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish.

Bularning barchasi, davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tashkil qilish va ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi davr boshlanganini ko'rsatadi.

Davlat soliq organlari faoliyatida soliq intizomi darajasini oshirishda bir qator fundamental masalalar borligini unutmash zarur. Jumladan, soliq organlari o'z faoliyatida shaffoflikni, soliq nazorati tartib-taomillari samaradorligini oshirishi, soliq ma'muriyatchiligi tizimidagi texnologik innovatsiyalar salohiyatidan faolroq foydalanishi zarur [3].

Bundan tashqari, soliq sohasidagi qonuniy va noqonuniy xatti-harakatlar o'rtasidagi tanlov nafaqat soliq to'lovchini o'z xatti-harakatlarining foydasi va xarajatlarini iqtisodiy hisobga olish bilan, balki subyektiv qiymat omillari, xususan, ko'pchilikka xos bo'lgan adolat istagi bilan ham belgilanadi [4].

Y.N. Grigoryeva “Oddiy soliq to'lovchi tomonidan davlatning fiskal siyosatini tushunish uning adolatliliigi yoki adolatsizligini subyektiv baholashdir”, – deb qayd etgan.

Bizningcha, soliq tizimining adolatliliigi, avvalo, jamiyatdagi soliq madaniyatining da-

rajasi bilan ham bog'liq. Shuni unutmash zarurki, soliq tizimining asosiy va ustuvor vazifasi markazlashtirilgan pul mablag'larini shakllantirish uchun daromadlarni yig'ishdir.

Shu bilan birga, huquq ustuvorligi ta'minlanadigan davlatda soliqqa tortishning muhim vazifasi jamoatchilik ongida soliqdan kelib tushgan budjet mablag'larini adolatli tarzda qayta taqsimlashdir. Xususan, “soliqlar ijtimoiy qiyinchiliklarni kamaytirishi, barcha darajada (shaxslar, guruhlar, umuman jamiyat) jamiyatda tinchlik va totuvlikni saqlash vositasi sifatida harakat qilishi lozim” [5].

Demak, O'zbekistonda soliq tizimini modernizatsiyalash jamiyatda daromadlarning adolatli taqsimlanishiga (qayta taqsimlanishiga) yordam berishi lozim. Bu vazifani amalga oshirish O'zbekiston aholisining soliq madaniyatini oshirish uchun zaruriy shartdir.

#### **Material va metodlar**

Tadqiqot jarayonida uchta savolga javob berishga harakat qilindi: birinchi, davlat soliq xizmati organlarining barcha soliq to'lovchilar – yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslar bilan munosabati qanday bo'lishi kerakligi, bu borada xorijiy va mahalliy olimlar fikrlari qandayligi, ikkinchi, soliq to'lovchilar – yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslarning o'z majburiyatlarini ixtiyoriy bajarishda davlat soliq xizmati organlarining tutgan o'rni qandayligi; uchinchi, soliq tizimining sheriklik tamoyiliga asoslangan rivojlanish konsepsiyasini O'zbekiston soliq qonunchiligiga joriy qilish istiqbollari qandayligi?

Mazkur savollarga javob tariqasida mualliflik pozitsiyasi ishlab chiqilib, soliq tizimining sheriklik tamoyiliga asoslangan rivojlanish konsepsiyasini O'zbekiston soliq qonunchiligiga joriy qilishning bir qator muhim xususiyatlari alohida ta'kidlandi. Ushbu maqola xorijiy keng tarqalgan usullarni konseptual, nazariy, konstitutsiyaviy-huquqiy va amaliy tushunishga qaratilgan. Ushbu tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil,



umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik o'rganish usullaridan foydalanildi.

### **Tadqiqot natijalari va tahlili**

O'tkazilgan so'rovnomada natijalariga e'tibor qaratsak, "Shaxslarning soliqlarni o'z vaqtida va to'liq to'lash intizomini ixtiyoriy ta'minlash uchun qanday choralar ko'riliishi lozim?" degan savolga respondentlarning 29,9% i qat'iy javobgarlik choralarni joriy qilish lozim, 27,5 %i soliq qonunchiligini soddalashtirish va adolatli prinsiplarni joriy etish lozim, 22,8 %i soliqlarni to'lashning qulay vositalari va xizmatlarini joriy qilish lozim, 19,8 %i soliqlar to'liq to'langanda uning bir qismini qaytarish prinsipini joriy qilish lozim, deb javob bergan.

Shuni ta'kidlash zarurki, jamiyatning soliq madaniyatini takomillashtirish va zamonaviy soliqqa tortish modellarini konseptual takomillashtirish soliq to'lovchilar xulq-atvorining *rag'batlantiruvchi* omillarini o'rganishni talab qiladi.

Ayniqsa, ushbu sohada turli soliq turlari bo'yicha, misol uchun qo'shilgan qiymat solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, aksiz solig'ini avvaldan to'lab qo'rganlik uchun ushbu yuridik shaxslarga summadan kelib chiqqan holda 0,2 dan 0,5 %gacha keshbek tizimini joriy qilish zarur. Ushbu keshbek summasidan kelgusida faqat soliqlarni to'lash uchun sarflash tizimini o'rnatish taklif qilinadi.

Ushbu taklifni o'tkazilgan so'rovnomada respondentlar ham qo'llab-quvvatladi. Jumladan, "Sizningcha, soliq to'lovchilar soliqlarni ixtiyoriy ravishda o'z vaqtida to'lagan taqdirda, soliq to'lovchilarga to'langan soliqning 5 foizini qaytarish tizimini joriy qilish maqsadga muvofiqmi?" degan savolga respondentlarning 50 %i – "Ha, foyda beradi va soliqlar to'lovlarini oshishiga olib keladi", 19,7 %i – "Yo'q, foyda bermaydi", 20,8 %i – "Ha, faqat jismoniy shaxslarga qo'llasa foyda beradi" deya, 8,4 %i esa boshqa javoblarni bergan.

Aholining soliq intizomini takomillashtirishning ahamiyati tobora ortib borayotgani davlat soliq organlarining soliq to'lovchilar bilan ishlashning yangi va zamonaviy yondashuvlarini joriy qilishini taqozo etadi.

Davlat soliq inspektorlari va maslahatchilari uchun targ'ibot ishlari soliq to'lovchilarga kerakli ma'lumotlarni taqdim etishda eng ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi zarur. Bundan tashqari, soliq solish obyektlarini to'liq qamrab olish va soliq solinadigan bazani kengaytirish, shuningdek, soliq va yig'imlarni o'z vaqtida yig'ish uchun mavjud resurslarni safarbar qilish maqsadida soliq organlarining tashkiliy-shtat tuzilmasini qisqartirish kerak. Bundan maqsad, qisqargan shtat o'rinlariga inson omilini cheklash orqali sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar asosida soliq to'lovchilar bilan masofaviy aloqa o'rnatish va avtomatik ravishda ishlashni yangi bosqichga ko'tarishga yo'naltirish zarur, deb hisoblaymiz.

M.V. Lukyanenkoning fikricha, nazorat qiluvchi organlar faoliyatini qat'iy tartibga solish va standartlashtirish asosida soliq intizomini ta'minlash vazifasi dolzarbdir [6]. Ushbu fikrga qo'shilish mumkin. Davlat soliq organlari o'z vazifa va funksiyalarini matematik algoritmlardek bilishi va professional bo'lishlari zarur.

*Shu o'rinda qayd etib o'tish joizki, davlat soliq xizmatiga ilk marotaba ishga kirayotgan shaxslarni maxsus amaliyotga ixtisoslashtirilgan kurslarda o'qitish, ularning davlat va huquq nazariyasi, Konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq kabi fundamental bilimlarini oshirishga alohida e'tibor qarantish lozim.* Bu, o'z navbatida, soliq intizomini to'g'ri tashkil etishga imkon beradi. Ushbu zaruratni sudlarda bekor qilinayotgan soliq xizmati organlari qarorlarining soni ham tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, respondentlardan o'tkazilgan so'rovnomada natijalariga ko'ra, "Sizningcha, Davlat soliq qo'mitasi tizimidagi xodimlarga O'zbekiston Respublikasi

Soliq kodeksi normalarini to'g'ri qo'llashda qaysi jihatlar xalaqit beradi?" degan savolga respondentlarning 25,1 %i – O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi normalari ko'pchilik holatlarda noaniqligi, 17 %i – yuridik normalarni talqin qilish yoki sharhlash ko'nikmasini yetarli emasligi, 8,5 %i – yuridik ma'lumot bo'yicha ta'limning mavjud emasligi, 49,4 %i boshqa javoblarni bergan.

Davlat soliq organlari faoliyati va ularni amalga oshirish vositalari soliq to'lovchilarning xulq-atvoriga kuchli ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, ular tomonidan soliq organlariga ham ma'lum bosim o'tkaziladi. Shuning uchun bu jarayon o'zaro bog'liq bo'lib, uning biron-bir qismi bo'lmasa, samarali ishlashi imkonsizdir. Shu bilan birga, shuni tushunish kerakki, bunday bosimning umumiy huquqiy chegaralaridan chiqib ketishi nizoli vaziyatlarga sabab bo'ladi.

Ko'pchilik tadqiqotchilar ham shunga o'xshash qarashni ilgari surgan. Jumladan, L.P. Danchenko: "Nazorat va majburlov vositalari ustuvorligi bilan bir tomonlama ma'muriy ta'sirga asoslangan soliq ma'muriyatchiligining ma'muriy-buyruqbozlik modelidan "mijozga yo'naltirilgan xizmat" tamoyiliga, nizolarni sudgacha hal qilish, o'zaro ishonch va boshqaruvchi bilan o'zaro manfaatli "almashinuvi"ga asoslangan "shiriklik hamkorligi" modeliga o'tish" [7] zarurligini asoslab bergan.

Soliq tizimini boshqarishning bunday talqini I.A. Maiburov tomonidan taklif qilingan ta'rifga mos keladi: "...bu soliq sohasida vakolat berilgan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladigan, tegishli ijro va boshqaruv faoliyatini hamda qonunchilik bazasini shakllantirish jarayoni bo'lib, bu jarayonda soliq tizimini davlat soliq siyosatining ustuvor maqsadlari, modellari va usullariga muvofiqlashtirish asosida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan harakatlar izchilligi va birligi ta'minlanadi" [8].

Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarning boshida soliq organlari, soliq to'lovchi yuridik shaxslar va jismoniy shaxslar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash ishlari yotadi. Soliq savodxonligi, soliq madaniyati, individual va jamoaviy soliq javobgarligi darajasini oshirish orqali budjetga soliq to'lovlarini o'z vaqtida to'lash hajmini ko'paytirish va oshirish mumkin [9], bu esa iqtisodiyot va jamiyatga soliq yukini oshirishga hojat qoldirmasdan xarajatlar majburiyatlarini to'liq moliyalashtirishni ta'minlaydi.

Ushbu holatlar iqtisodiyoti rivojlanayotgan Markaziy Osiyo davlatlari uchun juda muhimdir va ularning rivojlanishi korporativ va xususiy sektorning ishlashi uchun soliq sharoitidagi o'zgarishlarga juda sezgir [10, 11].

Soliq organlari soliq to'lovchilar bilan hamkorlikni mustahkamlashdan eng ko'p manfaaddordir. Amalga oshirilayotgan soliq siyosatining asoslaridan qat'i nazar, soliq to'lovchi uning eng muhim obyekti hisoblanadi [5], shu bilan birga, soliqlar va yig'implarni to'lashning to'liqligi va o'z vaqtida to'lanishi nuqtayi nazaridan faqat soliq to'lovchining javobgarligini boshqarish yetarli emas.

Shuni ham qayd etish zarurki, davlat soliq xizmati organlarining soliqlarni o'z vaqtida va bir xildagi tushumini ta'minlash funksiyasini takomillashtirish, shuningdek, ushbu sohadagi ma'muriy tartib-taomillarni qisqartirish va soddalashtirishga qaratilgan bir qator ilmiy nazariyalar shakllangan.

*Powerful authority and trustful taxpayers* (kuchli hokimiyat va ishonuvchan soliq to'lovchilar) nazariyasi vakillari Katharina Gangl, Eva Hofmann, Barbara Hartl va Mihaly Berkicslarning fikriga ko'ra, soliq organi soliq tushumi va intizomini ta'minlash uchun ikkita yondashuvdan foydalanadi: birinchisi, hokimiyat yondashuvi va ikkinchisi, ishonch yondashuvi. *Hokimiyat yondashuvi* (boshqaruv, nazorat va ushlab turish deb ham deb ataladi) doimiy soliq tekshiruvi va soliqdan

bo'yin tovlash holatlarida og'ir jarimalar tayinlashga asoslanadi. *Ishonch yondashuvi* esa shaffoflik, adolatli jarayon va soliq to'lash ijtimoiy burch ekanligiga ishonitirishda ifodalinishini ta'kidlashadi [12].

Y.V. Xit o'z tadqiqotlarida hokimiyat yondashuvini yoqlagan holda: "Soliq intizomiga rioya qilish, ya'ni soliqning to'g'ri hisoblanishi, qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarga muvofiq o'z vaqtida to'lanishi soliq organlari tomonidan qarz, penya, penya undirish ko'rinishidagi da'volar bo'lmasligini ta'minlaydi" [13], – deb qayd etadi.

*Slippery Slope Framework* (sirpanchiq qiyalik modeli) nazariyasi vakillari Erich Kirchler, Erik Hoelzl, Ingrid Wahl qayd etishi-cha, soliq intizomi soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatga bog'liq, agar ular o'rtasida "politsiya va o'g'ri" munosabati bo'lsa, davlat soliq xizmatchilari soliq to'lovchilarni doim "o'g'ri" sifatida soliq to'lashdan bo'yin tovlashi va tekshirib turish lozim. Soliq to'lovchilar esa soliq organlari tomonidan doim ta'qib ostida ekanligi uchun imkon qadar yashirinishga harakat qiladi. Ushbu holatda taraflar o'rtasida hurmat yoki ijobiy munosabat bo'lmaydi, aksincha, soliq to'lovchi "ratsional o'lchov", ya'ni soliqdan bo'yin tovlashning daromadi va xarajatlarini o'lchab ko'rish prinsipida ishlaydi.

Ushbu nazariya vakillari soliq organlari va soliq to'lovchilar "xizmat va mijoz" prinsipida ishlashi lozimligi, soliq organi soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishi, natijada soliq to'lovchilar soliq tizimining adolatli ishlayotgani va ishongani sababli ixtiyoriy soliqlarni to'lashga o'tishini ta'kidlaydi. Shuningdek, soliq to'lovchilarning ixtiyoriy to'lash prinsipi xarajatli bo'lgan soliq tekshiruvlarini kamaytirishi hamda "tekshiruvchilarni tekshirish" kabi ortiqcha xarajatlardan voz kechishga olib kelishini ta'kidlashadi [14].

Bir qator tadqiqotlar (Gadžo, Klemenčić, Gribnau, Mathias) [15] soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning faollashishi muqarrar ravishda

soliq siyosatini amalga oshirish sifati va samaradorligini oshirishga olib kelishini isbotladi. Bu esa soliq va yig'implarni o'z vaqtida to'lashni rag'batlantirish maqsadida soliq to'lovchilar bilan o'zaro aloqalarni faollashtirish soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishning muhim manbasi ekanligini ko'rsatadi.

Bizningcha, yuqoridagi nazariyalarning milliy davlat soliq xizmatiga joriy qilinishi davlat soliq xizmati organlarini soliq to'lovchilarning biznes hamkori va maslahatchisi sifatidagi yangi imijini yaratish orqali xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan idoraga aylantirish, har bir xodim tomonidan "Soliq xizmati – insofli soliq to'lovchilarning ishonchli hamkori" degan maqsadli vazifani so'zsiz bajarishga olib keladi.

O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichidagi asosiy muammo ham aynan fuqarolarning soliq savodxonligi va madaniyatini shakllantirishdir. Bugungi kunda soliq madaniyati past darajada, bu fuqarolarning o'z huquqlari to'g'risida va soliqlar haqida xabardorlik darajasi past ekanligi bilan tavsiflanadi, masalan, barcha soliq to'lovchilar ijtimoiy va mulkiy chegirmalar olish huquqiga ega yoki imtiyozlarga ega ekanliklarini bilishmaydi yoki qanday amalga oshirishni bilish imkoniyatiga ega emas.

Soliq intizomining yuqori darajasi va "Soliq xizmati – insofli soliq to'lovchilarning ishonchli hamkori" degan ustuvor vazifani oldimizga qo'yar ekanmiz, barcha davlat organlari kabi bugungi kunda davlat soliq organlari faoliyati samaradorligini baholash masalalarini ham kun tartibiga qo'yishimiz zarur.

Iqtisodiyotning eng murakkab va ko'p qirrali muammolaridan biri samaradorlikni baholash muammosidir. Bu o'z-o'zidan ancha murakkab vazifa bo'lib, uni hal qilishda kompleks, tizimli yaxlit yondashuvni talab qiladi.

Davlat soliq organlari faoliyati samaradorligini baholash mezonlaridan biri soliqlardan budjetga rejalashtirilgan [16] va haqiqiy tushumlarni real baholashga ega bo'lishi ke-

rak. Bu tushumlarning rejalashtirilgan hajmini baholash muammosini keltirib chiqaradi, chunki hududning soliq salohiyatini baholashning mavjud yondashuvlari soliq yig'ishning barcha mumkin bo'lgan omillarining ta'sirini to'liq hisobga olmaydi [17].

Alohida-alohida, soliq organlari tomonidan qo'llanadigan yoki qo'llangan baholash mezonlarini birlashtiruvchi usullar guruhi ajratib ko'rsatish kerak. Shunday qilib, 1994-yilda davlat soliq xizmati tomonidan quyi bo'g'indagi hududiy soliq organlariga bir qator ko'rsatkichlar bo'yicha hisobotlar olish, ularni hududlar kesimida taqqoslash asosida faoliyati baholab borilgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu metodologiya doirasida yuqori turuvchi soliq organlari tomonidan soliq inspeksiyalari faoliyatining holati va sifatini tekshirish natijalaridan va boshqa ma'lumotlardan foydalanilgan.

Bizningcha, alohida soliq organi faoliyatining samaradorligi ikkita asosiy omil bilan belgilanadi:

- budjetga soliq to'lovlarining tushumi, ularning miqdori ma'lum bir hudud (viloyat, shahar, tuman) soliq salohiyatini ta'minlay oladigan miqdorga imkon qadar yaqin bo'ladi;

- soliq to'lovchilar tomonidan ham, soliq organlari tomonidan ham soliq qonunchiligining buzilishi (qasddan va ehtiyotsizlik) yo'qligi, ya'ni amaldagi soliq qonunchiligiga qat'iy rioya etilishi darajasi.

Bizningcha, bugungi kunda keng qo'llanayotgan "tekshiruv davomida qonunbuzarliklar aniqlangan soliq to'lovchilar ulushi", "qo'shimcha soliq va penyalar miqdori", "hujjatlashtirilgan, soliq to'lovchiga to'g'ri keladigan qo'shimcha yig'imlar summasi" va boshqa shunga o'xshash ko'rsatkichlar va mezonlarni davlat soliq organlari faoliyatini baholash mezonlaridan chiqarib tashlash zarur. Asosiy mezon ma'lum bir hududda soliq to'lovchilar tomonidan ixtiyoriy o'z vaqtida to'langan soliqlar miqdoridan kelib chiqishi kerak.

Shu nuqtayi nazardan samaradorlik tur-larini farqlash va ularni birlashtirish usullari, samaradorlik dinamikasi omillarini tahlil qi-lishning batafsil va murakkabligi, samaradorlik hisoblari amalga oshiriladigan obyektlar va tadbirlar sonining ko'payishi, shuningdek, samaradorlik ko'rsatkichlari tizimlarini qurishda iyerarxiya bu boradagi tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

### Xulosa

Soliq organlari faoliyatini baholashning yagona tizimini, shu jumladan, uning samaradorligini baholash mezonlarining yagona tizimini yaratish taklif qilinadi. Shu bilan birga, soliq ma'muriyatchiligi soliq organlarining tashkilotlar va jismoniy shaxslar tomonidan soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish bo'yicha faoliyati sifatida soliq tizimi va soliq organlari tizimining eng samarali ishlashiga yordam beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi xulosalar ilgari suriladi:

birinchi, soliq to'lovchilarning xatti-harakatlari va shunga asoslangan bir tomonlama soliq munosabatlari tartibga solish modellarini, balki jamiyatda barqaror rivojlanish manfaatlari yo'lida soliq sohasidagi munosabatlarda davlat soliq organi va soliq to'lovchilar o'rtasidagi sherik modelidan samarali foydalanish mexanizmlarini ochib berish zarur, deb hisoblaymiz. Shu nuqtayi nazardan *soliq tizimining sheriklik tamoyiliga asoslangan rivojlanish konsepsiyasini O'zbekiston soliq qonunchiligiga joriy qilish taklif qilinadi;*

Ikkinchi, soliq va yig'imlarni o'z vaqtida yig'ish uchun mavjud resurslarni safarbar qilishda oqilona yondashuvni shakllantirish uchun *soliq organlarining tashkiliy-shtat tuzilmasini doimiy ravishda takomillashtirish talab qilinadi.* Bunda asosiy e'tiborni inson omilini cheklash orqali sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar asosida soliq to'lovchilar bilan masofaviy aloqa o'rnatishni yangi bosqichga ko'tarish zarur.



Uchinchi, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, soliq organlarini ma'naviy-axloqiy jihatdan yuqori malakali xodimlar bilan to'ldirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, shuningdek, xodimlarni fundamental huquqiy bilimlarini oshirishga qaratilgan tizim yaratish zarur. Bizningcha, davlat soliq xizmatiga ilk marotaba ishga kirayotgan shaxslarning *davlat va huquq nazariyasi, konstitutsiyaviy huquq, ma'muriy huquq kabi fundamental bilimlarini* oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu, eng avvalo, soliq qonunchiligi normalarini to'g'ri talqin qilish va amaliyotga qo'llashda soliq xizmati organlari xodimlarining soliq to'lovchilar manfaatlarini buzmasligiga sabab bo'ladi.

To'rtinchi, soliq intizomini ta'minlashda *ishonch yondashuvi doktrinasi* asosida soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi muno-

sabatlarni "xizmat va mijoz" prinsipi asosida tashkil etish taklif qilinadi. Bizningcha, ushbu nazariyalarning milliy davlat soliq xizmatiga joriy qilinishi davlat soliq xizmati organlarini soliq to'lovchilarning biznes-hamkori va maslahatchisi sifatidagi yangi imijini yaratish orqali xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan idoraga aylantirish, har bir xodim tomonidan "Soliq xizmati – insofli soliq to'lovchilarning ishonchli hamkori" degan maqsadli vazifani so'zsiz bajarishga olib keladi.

Yuqoridagi taklif va mulohazalar mamlakatimizda soliqlar va yig'implarni yig'ish, soliq solinadigan bazani kengaytirish va soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirishga, davlat soliq xizmati organlarini soliq to'lovchilarning biznes hamkori va maslahatchisi sifatidagi yangi imijini yaratishga xizmat qiladi.

## REFERENCES

1. Korostelkina et al. Models of tax relations: improving the tax culture and discipline of taxpayers in the interests of sustainable development. *E3S Web of Conferences. EDP Sciences*, 2020, vol. 159, p. 06014.
2. Murodov R.D. Tax culture in the system of tax relations. *Fundamental research*, 2016, no. 6, pp. 424–428.
3. Kuz'menko V.V., Molodykh V.A. Problemy formirovaniya effektivnoy nalogovoy politiki v otnoshenii tenevogo sektora ekonomiki [Problems of forming an effective tax policy in relation to the shadow sector of the economy]. *Bulletin of North Caucasus State Technical Institute*, Stavropol, 2016, no. 4, pp. 69–73.
4. Grigor'yeva Ye.N. Vzaimosvyaz' pravosoznaniya i pravovoy kul'tury nalogoplatel'shchika s fiskal'noy funktsiyey sovremennogo gosudarstva [Interrelation of legal consciousness and legal culture of the taxpayer with the fiscal function of the modern state]. *Bulletin of Perm University. Legal sciences*, 2012, no.
5. Demin A.V. Sovershenstvovaniye nalogovoy kul'tury kak vazhneyshaya predposylka perekhoda k «partnerskoy» modeli nalogovogo administrirovaniya [Improving tax culture as the most important prerequisite for the transition to a "partnership" model of tax administration]. *Bulletin of the Kazan Law Institute of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, 2016, no. 4 (26), pp. 81–85.
6. Luk'yanenkov M.V. Nalogovaya distsiplina kak element sotsial'no otvetstvennogo povedeniya gosudarstva, biznesa i grazhdan [Tax discipline as an element of socially responsible behavior of the state, business and citizens]. *Izvestiya of higher educational institutions. Volga region. Social Sciences*, 2007, no. 3 (32), pp. 30–36.
7. Danchenko L.P. Nalogovaya konkurentsia kak tsel' ekonomicheskogo razvitiya Ukrainy [Tax competition as a goal of economic development of Ukraine]. *Institutional foundations for the*



*functioning of economics under the conditions of transformation: a collection of scientific articles*, 2014, pp. 201–203.

8. Maiburov I.A. Encyclopedia of theoretical foundations of taxation. Moscow, Unity-Dana Publ., 2016, 503 p.

9. Gorchakova E.R. Povysheniye nalogovoy gramotnosti kak strategicheskiy oriyentir razvitiya gosudarstva i regionov [Increasing tax literacy as a strategic guideline for the development of the state and regions]. *Vector of Economics*, 2018, no. 3 (21), p. 22.

10. Nazarbekova G.N., Nogoyeva A. Problemy razgranicheniya nalogovogo planirovaniya i ukloneniya ot uplaty nalogov v Kyrgyzskoy Respublike [Problems of distinguishing between tax planning and tax evasion in the Kyrgyz Republic]. *Izvestiya of the Issyk-Kul Forum of Accountants and Auditors of Central Asia*, 2016, no. 1-2-2 (13), pp. 293–297.

11. Deyeva T.V. Tsifrovyye tekhnologii v sisteme sovremennykh modeley vzaimodeystviya nalogoplatel'shchikov i nalogovykh organov: opyt Tsentral'noy Azii i industrial'no razvitykh stran [Digital technologies in the system of modern models of interaction between taxpayers and tax authorities: the experience of Central Asia and industrially developed countries]. *Economics of Central Asia*, 2019, vol. 3, no. 4, pp. 253–264. DOI: 10.18334/asia.3.4.111601

12. Gangl K., Hofmann E., Hartl B., Berkics M. The impact of powerful authorities and trustful taxpayers: evidence for the extended slippery slope framework from Austria, Finland, and Hungary. *Policy Studies*, 2019, vol. 41 (1), pp. 98–111. DOI: 10.1080/01442872.2019.1577375

13. Khit Ye.V. Bukhgalterskiy uchet i audit: proshloye, nastoyashcheye i budushcheye [Accounting and auditing: past, present and future]. Proceedings of the Regional scientific and practical conference, 2016, pp. 158–162.

14. Kirchler E., Hoelzl E., Wahl I. Enforced versus voluntary tax compliance: The "slippery slope" framework. *Journal of Economic Psychology*, University of Vienna, 2008, no. 29, pp. 210–225.

15. Gadzo S., Klemencic I. Effective international information exchange as a key element of modern tax systems: promises and pitfalls of the OECD's common reporting standard. *Public Sector Economics*, 2017, no. 2.

16. Shishkareva Ye.YU. Kriterii otsenki effektivnosti kontrol'noy deyatel'nosti nalogovykh organov RF [Criteria for assessing the effectiveness of control activities of tax authorities of the Russian Federation]. Available at: <http://www.rae.ru/forum2012/pdf/n35.pdf>

17. Kunitsyn D.V., Sinitsyna Ye.S., Khudyayeva L. A. Metodiki otsenki effektivnosti deyatel'nosti nalogovykh organov: vidy, osobennosti, problemy ispol'zovaniya i puti sovershenstvovaniya [Methods for assessing the effectiveness of tax authorities: types, features, problems of use and ways of improvement]. *Siberian Financial School*, 2004, no. 3, pp. 69–74.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI  
ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК  
REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2024-yil 1-son

VOLUME 8 / ISSUE 1 / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.1.

**BOSH MUHARRIR:**

**Rustambekov Islambek Rustambekovich**

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d.,  
professor

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Xodjayeov Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,  
professor

**Mas'ul muharrir:** O. Choriyev

**Muharrirlar:** Y. Yarmolik, Y. Mahmudov, E. Mustafayev

**Musahhih:** M. Sharifova

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Veb-sayt:** review.tsul.uz

**E-mail:** reviewjournal@tsul.uz

**Obuna indeksi:** 1385.

Jurnal 26.03.2024-yilda tipografiyaga

topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 12,32 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 38.

TDYU tipografiyasida chop etildi.